

## ADABIY TANQID TARIXI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Tulishova Gulzina Ravshanovna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek adabiy tanqidchiligining rivojlanish bosqichlari Alisher Navoiy hamda Ozod Sharafiddinov faoliyati va tanqidiy qarashlari, shuningdek tanqidchilgimiz rivojida tutgan o'rni tahlillar jarayonida tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** Badiiy ijod, adabiy tanqid, so'z san'ati, adabiyot, adabiyotshunoslik, darslik.

**Abstract:** In the article, the stages of development of Uzbek literary criticism are studied in the process of analysis of the activities and critical views of Alisher Navoi and Azod Sharafiddinov, as well as their role in the development of our criticism.

**Key words:** Artistic creativity, literary criticism, word art, literature, literary studies, textbook.

**Аннотация:** В статье изучаются этапы развития узбекского литературоведения в процессе анализа деятельности и критических взглядов Алишера Навои и Азода Шарафиддинова, а также их роль в развитии нашей критики.

**Ключевые слова:** Художественное творчество, литературоведение, искусство слова, литература, литературоведение, учебник.

### KIRISH

Badiiy ijod va tanqid-adabiyotshunoslik hamisha so'z san'ati bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanib kelgan. Ko'p asrlik so'z san'ati singari tanqid va adabiyotshunoslik ham uzoq tarixiy tadrijiy yo'lni bosib o'tgan. Jahon adabiyoti va

tanqidchiligi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu sohaga taalluqli bo'lgan ko'plab ilmiy-adabiy manbalar mavjulgiga guvoh bo'lamiz. Masalan, adabiy tanqidchilikka doir bir qator o'zbekcha va ruscha entsiklopedik va adabiyotshunoslik terminlari lug'atlarida "Adabiy tanqid"ga qisqacha shunday ta'rif berilgan: Kritika - (grekcha kritike) so'z bo'lib, ma'nosi: muhokama qilmoq) "Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi, mustaqil sohasi bo'lib, u adabiy jarayonni, shu jarayonda yaratilayotgan badiiy asarlarning g'oyaviy-estetik qimmati, umumxalq adabiyotidagi o'rnini, yutuqlari va muammolarini, adabiy jarayondagi yo'nalishlarni aniqlab, baholab beruvchi ijod turidir. Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning ham nazariy, ham amaliy sohasi bo'lib sanaladi. Jahon adabiy tanqidchilari ichida Lessing, Didro, Belinskiy, Chernishevskiy, Dobrolyubov, Mering, Plexanov, Lunacharskiylarning nomlari mashhurdir.<sup>1</sup>

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"O'zbek sovet adabiyoti tarixi" darsliklarida shu fikr takrorlanib kelindi: "eng ilmiy, eng izchil ta'limot bo'lgan marksizm-leninizm sovet adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligi uchun taraqqiyot yo'lini ko'rsatuvchi yo'lchi yulduz hisoblanadi"<sup>2</sup>.

Sobiq sho'ro davridagi nufuzli adabiy manbalar va darsliklarimizdagi mana shunday biryoqlama e'tiroflardan ayon bo'ladiki, Alisher Navoiy va Bobur singari buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-tanqidiy faoliyati va bu sohadagi nodir asarlari bepisandlik bilan unutilib kelingan. Qayta-qayta nashr etilgan darsliklar va lug'atlarimizda ham negadir tanqid va adabiyotshunoslikning Sharq va xususan, ko'p asrlilik o'zbek adabiyoti va adabiy-estetik tafakkuri tarixidagi o'rnini va bu sohada "ilmi naqd", "ilmi bade'a", "ilmi g'ariba", "ilmi aruz" va "ilmi qofiya" kabi termin-istilohlarning keng qo'llanilib kelingani haqida deyarli fikr bildirilmagan. Taajjublanarli joyi yana shundaki, yuqoridagi manbalarda bir necha asrlar davomida tanqid va adabiyotshunoslik sohasida ham samarali ijod namunalarini yaratgan mutafakkir-ijodkorlarimizdan birortasining ham nomi yoxud asarlari tilga olinmagan.

---

<sup>1</sup> N.Hotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T: O'qituvchi, 1983, 167-b.

<sup>2</sup> Qosimov U. O'zbek dabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar. –T: Iqtisod-moliya. 2006. 12-b.

Xolbuki, yuqorida nomlari zikr etilgan mashhur rus va evropalik tanqidchilardan necha yuz yillar oldin, ya'ni IX-XI asrlarda yashab ijod etgan buyuk ajdodlarimiz - Beruniy, Forobiy va Ibn Sinolar qomusiy bilim sohiblari bo'lib, ular she'riyat va adabiyotshunoslik masalalari bilan ham shug'ullanib, "She'r san'ati" (Forobiy) kabi asarlar ham yaratganlar. Ayniqsa, XV-XVI asrlarda Navoiy va Boburlar hamda ularning shogirdlari va izdoshlari ilm-fan va san'atning ko'plab turlari va badiiy ijod olamida durdona asarlar yaratish bilan birga, ayni vaqtda, tanqid va adabiyotshunoslik sohasida ham barakali ijod qilishgan va o'zlaridan kelgusi avlodlar uchun ham boy adabiy-tanqidiy va ilmiy-estetik meros qoldirishgan.

### NATIJALAR

Afsuski, sobiq sho'ro davrida mumtoz adabiyotimizga va hatto Alisher Navoiy ijodiga nisbatan ham biryoqlama munosabatda bo'ldik va ulug' shoir va mutafakkir asarlari va adabiy-tanqidchilik faoliyati yetarli darajada o'rganilmagan. Masalan, qator ilmiy manbalar va hatto Adabiy tanqid bo'yicha darslik-qo'llanmalarda shunday biryoqlamalik ko'zga tashlanadi. Chunonchi, Mustaqillik arafasida nashr qilingan "O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi" darsligida quyidagi fikrlarni o'qiyimiz: "Alisher Navoiy o'zbek milliy tili va adabiyotiga asos solgan buyuk ijodkorgina emas, balki tanqidchilikni boshlab bergan buyuk allomalardan biri deb bejiz aytmaymiz. Ammo ulug' bobomiz o'zining daholik qudratini badiiy ijodda, she'riyatda namoyish qildi, tanqidchilikni faqat boshlab berdi, u boshlab bergan ish keng ko'lamda rivojlantirilmadi. Buning uchun shart-sharoit yo'q edi. Sotsialistik inqilobdan so'ng ana shunday shart-sharoit yaratildi..."<sup>1</sup>.

Mana oliy o'quv yurtlarining O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan va ayni Mustaqilligimiz arafasida - 1990 yili nashr etilgan salobatli darslikda Navoiy ijodiga berilgan ta'rif. Uning anchayin umumiyligidan tashqari buyuk shoir va mutafakkirimizning Xamsanavislikdagi beqiyos xizmatlari ham loaqal tilga ham olinmaganini qanday izohlash mumkin? Ikkinchidan esa,

---

<sup>1</sup> Xudoyberganov N, Rasulov A. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi. Universitetlar va pedagogika institutlari studentlari uchun darslik. -T: O'qituvchi. 1990 yil, 13-14-bb.

Navoiyning tanqid va adabiyotshunoslik sohasidagi ulkan faoliyati va bu sohada yaratgan tizimli ta'limoti va bebaho asarlari bilan "tanqidchilikni boshlab beribgina" qolmasdan, balki o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligini yangi va yuqori bir bosqichga ko'tarishga muvaffaq bo'lganligining yaqqol isboti bo'la oladi.

Ozod Sharafiddinov mansub bo'lgan munaqqidlar avlodining serqirra faoliyatini o'rganishda O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi va rivoji hamda uning ildiz-manbalari va omillari to'g'risida ham mas'uliyat bilan fikr yuritish joizdir. Ayniqsa, bu borada Navoiy davri tanqid-adabiyotshunosligi an'alariga murojaat qilinganda, albatta, mumtoz adabiyot va adabiy-tanqidiy tafakkur tarixiga xolisona munosabatda bo'lish talab etiladi. Bu davrga tiyraklik bilan nazar tashlay olsak, muhim tarixiy haqiqatga guvoh bo'lamiz va bu holatdan hayrtga tushamiz. Zabardast munaqqid hamda adabiyotshunos sifatida ham badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan hazrat Navoiyning serqirra faoliyati va ilmiy, adabiy-tanqidiy merosi shu qadar sermahsul va ko'lamdorki, bu, hech bir mubolag'asiz, butun bir millatning faxru g'ururi bo'la oladi. Chunki o'nlab yetuk munaqqid va adabiyotshunoslar hamkorlikdagina eplashi mumkin bo'lgan g'oyat katta miqyosli mas'uliyatli vazifani Navoiyning bir o'zlari a'lo darajada ado etib kelgani jahon adabiy-estetik tafakkuri tarixida istisno bir hodisa deyish mumkin. "Falak ko'rmagan nodir" siymo Navoiy o'zining ilohiy bir dahosi va tengsiz ijodiy salohiyati bilan she'riyat, xamsanavislik va dostonnavislikda eng yuksak cho'qqiga ko'tarilish bilan birga, ayni vaqtda, ilmi naqd, ilmi g'ariba, ilmi badea, ilmi aruz kabi sohalardagi betakror asarlari bilan hamda butun Xuroson mamlakatidagi ilmiy, adabiy-tanqidiy yo'nalishdagi jarayonlarga rahnamolik va homiylik qilganligi ko'plab tarixiy va adabiy manbalarda to'la aks etgan. Atoqli adib va olimlarimiz: Oybek, Ayniy, Shayxzoda, A.Hayitmetov, B.Valixo'jaev, H.Sulaymonov, S.G'aniyevlar e'tirof etganidek, bu tarixiy haqiqatdan har bir vatandoshimiz faxrlansak arziydi. Bunga dalil tariqasida Navoiy davrida yashab ijod etgan va unga zamondosh yo shogird va izdosh bo'lgan ko'plab ilm-fazl ahlining tarixiy hamda ilmiy-adabiy asarlari, tazkira va yodnomalarini esga olish mumkin. Lekin bu o'rinda birgina misol - Navoiy hazratning o'zlari yozib qoldirgan tarixiy va

adabiy-estetik bitik - ma'lumot va e'tiroflarini keltirish bilan kifoyalanamiz. Shu maqsadda Navoiyning tanqid va adabiyotshunoslik sohasidagi faoliyati qanchalar keng qamrovli va samarali bo'lganligini tasavvur etish uchun o'sha davrda Navoiy boshqargan ijodiy jarayonni va adabiy an'ana-tamoyillarni tushuncha va saviyamiz darajasida bo'lsa ham ko'z oldimizga keltirishga urinaylik: "Qirq yilga yaqindirki, olam mamlakatlari fozillari va komillarining ulug' shahri va ilmiy markazi Xuroson yurtining barcha nazm ahli, shirinkalom shoirlari va muhtaram fasohat ahli qog'oz yuziga qanday ma'no bilan oroyish va qaysi so'zlar bilan daftarlar yuzlarini bezab, namoyish qilmoqchi bo'lsalar, men faqir suhbatiga yetkazdilar va bu zaifga ma'qullatib, o'z asarlari nuqsu qusurlari islohini so'radilar. Ular yuzasidan xotiramga kelgan mulohazalarimni aytganimda, insof yuzasidan qabul va minnatdorchiliklar izhor qildilar; shubha va e'tiroz bildirganlarga dalillar keltirib tushuntirishga harakat qildim, shundan so'ngra ular qabul qilib, o'zlari shukr qilib, mamnuniyat bildirdilar"

### MUHOKAMA

Ba'zilar ta'riflaganlaridek, faqat ikki til qiyosiga bag'ishlangan asar deb o'rganiladigan "Muhokamat ul-lug'atayn"dan olingan shu birgina muxtasar e'tirof zamirida g'oyat keng mazmun va chuqur tarixiy va ilmiy haqiqat mujassam desak yanglishmagan bo'lamiz. Navoiyga xos samimiyat va kamtarinlik bilan aytilgan ushbu xotira-e'tirofnomada, eng avvalo, buyuk Navoiyga xos fidoiylik, iste'dodi turfa xil yuzlab yosh ijodkorlarga e'tibor va xayrixohlik fazilatlarini bilan birga o'sha davrdagi badiiy ijod va tanqidchilik rivoji haqidagi beqiyos jonkuyarlik va millatparvarlik faoliyati qanchalar ko'lamdor va serqirra bo'lganligini tasavvur qilish uchun, albatta, yetuk mutaxassis bo'lmasa ham, aqalli ziyrak kitobxon va adabiyot muxlisi bo'lishi lozim. Bunday fidoiylik va jonkuyarlik adabiyotni tengsiz birinchi mo'jiza deb bilgan va "Adabiyot yashasa - millat yashar" degan yuksak maslak-e'tiqod bilan yashagan va butun talanti va umrini shu ezgu maqsad yo'liga bag'ishlab, Navoiydek buyuk yalovbardorlarimizdan ulgu olgan zamonamiz Qahramoni Ozod Sharafiddinovdek yorqin va betakror shaxsni aslo befarq qoldirishi mumkin emas edi. Bir intervyusida ta'kidlaganidek, Navoiy fenomenini chuqur anglash va uni dunyo ahliga tanita olish -

Ozod Sharafiddinovning ham yuksak orzularidan edi. Shunga ko'ra biz Ozod Sharafiddinovni ham buyuk Navoiyning sadoqatli izdoshi va munosib bir vorisi deb ta'riflashga to'la asos bor deb o'ylaymiz. Xususan, so'z san'atiga ehtiromli munosabatda va ijod namunalarini nekbinlik bilan baholashda Navoiy va Ozod Sharafiddinovga xos bir mushtaraklikka e'tibor qaratishni lozim topamiz. Navoiy hazratlari o'zining 1491 yili yaratgan va 1498 yili qayta ishlab, mukammallashtirgan "Majolis un-nafois" tazkirasida 460 dan ortiq ijod ahliga ta'rif - tavsif berib, ularning yutuqlari va kamchiliklarini xolisona tahlil etganlari adabiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum. Jumladan, Sug'diy taxallusi bilan she'rlar bitgan o'rtamiyona bir shoirning ko'p asarlari bo'sh-sayozligini aytgani holda, uning birgina bayti:

“O'xshatdi qomatingga sanobarni bog'bon,  
Bechora bilmas ermish alifdin tayog'ni”

misralarni yaxshi bog'lagani uchun unga Ollohdan rahmat tilaydi.

Endi Ozod Sharafiddinovning shoir va adiblar iste'dodi va ijodiga baho berishida hamisha amal qilgan va sinovlardan o'tgan asosiy bir mezonini esga olaylik: Olim ta'kidlaganidek, ijod murakkab jarayon. Ba'zan ijodi o'rtacha yoki pastroq bo'lgan adibning ham chinakam iste'dod bilan yaratgan birgina asari nafaqat o'sha adib ijodining ulkan yutug'i, balki butun bir davr adabiyoti yoxud she'riyatining rivojini belgilovchi yuksak bir namuna bo'la olishi mumkin. Ulug' Navoiyning tanqid-adabiyotshunoslikdagi nuktadonlik bilan yo'g'rilgan mezon va an'analari Ozod Sharafiddinovdek bag'rikeng va haqgo'y munaqqidlarimiz uchun ham ibrat bo'lganligi haqiqatga yaqin.

### XULOSA

Tanqid va talqin Ozod Sharafiddinov orzu va amal qilganidek, avvalo, yuksak saviyadagi kitobxonlik bilan bog'liqdir. Badiiy matnni uqish va uning zamiridagi ma'noni anglash uchun shunday yuksak maqomdagi "professional kitobxonlik" zarurligi haqida buyuk jadid ma'rifatchilari ham yozishgan. Zotan, sharq adabiyotshunosligi va Navoiy davri tanqidchiligida ilmi dark (idrok ilmi), urafo (mavjud qarashlar asosidagi talqin) va zurafo (asardagi zarofat-yangilikni his etish)

kabi talqin jarayonining ilmiy-ma'naviy shart - omillari belgilangan (A.Rasulov). Navoiyning "Majolis un-nafois"i bunga yorqin misoldir. Yoxud Navoiy "Xamsatu-l-mutaxayyirin" asarida Abdurahmon Jomiyning adab ilmidagi fazilatlarini ulug'lash bilan birga ilmi g'aribada tengsizligini ta'kidlagan: ...va g'aribdurkim, zohir ulumining takomili vaqtida necha ish alarga muyassar bo'lubturkim, bu ummatda akobir va sohib kamollardan hech qaysig'a voqe bo'lg'oni zohir ermas".

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Hotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T: O'qituvchi, 1983, 167-b.
2. Qosimov U. O'zbek dabiyyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar. –T: Iqtisodmoliya. 2006. 12-b.
3. Xudoyberganov N, Rasulov A. O'zbek sovet adabiy tanqidchiligi. Universitetlar va pedagogika institutlari studentlari uchun darslik. –T: O'qituvchi. 1990 yil, 13-14-bb.